TIBBIY TERMINOLOGIYA VA TIBBIYOT PSIXOLOGIYASINING O‘ZARO UZVIY BOG‘LIQLILIGI

Eshmurodova Shirin Oybekovna

1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

saipovashirin118@gmail.com

Annotatsiya. Tibbiy terminologiya va tibbiy psixologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tibbiyot xodimi va bemor o‘rtasidagi samarali muloqot, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va davolash jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omillardir. Tibbiyot psixologiyasi bemorning ruhiyatini, xulq-atvorini va kasallikka bo‘lgan munosabatini o‘rgansa, tibbiy terminologiya bu jarayonlarni aniq, lo‘nda va tushunarli tilda ifodalash vositasidir.

Kalit so‘zlar: *xulq atvor, tibbiyot, tashxis, psixologiya, tibbiy terminologiya, davolash usullari, psixodiagnostika va tashxis, psixofarmakoterapiya.*

Kirish. Tibbiyot psixologiyasi tom ma’noda bemorning psixologiyasini o‘rganuvchi fandir. Lekin bu ta’rif uning barcha imkoniyatlarini qamrab ololmaydi, albatta. Chunki u sog‘lom kishilarda kasallik keltirib chiqaruvchi barcha tashqi va ichki omillami ham o‘rganadi, ularning sabablarini izlaydi. Tibbiyot psixologiyasi chegara bilmas, keng qamrovli fandir. U uzoq tarixga ega bo‘lib, o‘zining rivojlanish bosqichida bir nechta davrlarni bosib o‘tgan. Tibbiyot psixologiyasi quyidagi asosiy masalalarni o‘rganadi: 1) bemor va tibbiyot xodimining shaxsi, ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni; 2) psixoprofilaktika, psixogigiyena va deontologiya muammolarini; 3) shifokor siri va etikasini; 4) yosh bilan bog‘liq tibbiypsixologik muammolarni; 5) sezgi va idrok, diqqat va xotira, shaxs, xulq-atvor, temperament, stress, hissiyot, tafakkur, ong va ularning xususiyatlarini; 6) psixologik tekshirish usullarini. Shuningdek, ushbu fan psixogen va organik kasalliklarda kuzatiladigan psixologik o‘zgarishlarning etiologiyasi, klinikasi va diagnostikasini o‘rganib, davolash choralarini ishlab chiqadi. Tibbiy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu psixosomatik sindromlarni o‘rganishdir. Tibbiyot psixologiyasini boshqa tibbiyot fanlaridan ajratib o‘rganish xato bo‘lur edi. Har qanday kasallik asosiy davolash choralaridan tashqari, bemorga ruhiy ta’sir qilishni ham taqozo etadi. Masalan, operatsiyaga tayyorlanayotgan bemorni jarroh yaxshi so‘zlar bilan tinchlantiradi, operatsiyaning muvaffaqiyatli o‘tishiga ishontiradi, operatsiyadan keyin sog‘ayib oyoqqa turib ketishiga unda ishonch uyg‘otadi. Operatsiyadan keyin ham bemor bilan suhbatlashish asosan, uning ruhini ko‘tarishga, asabini tinchlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu ish bilan albatta, jarrohning o‘zi va boshqa tibbiyot xodimlari shug‘ullanadi.

Bog‘liqlikning asosiy jihatlari:

Samarali muloqot va etika (Deontologiya): Tibbiyot xodimi terminlarni to‘g‘ri qo‘llashi orqali bemorda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otadi. Murakkab tibbiy atamalarni bemor tushunadigan tilda tushuntirish (psixologik yondashuv) bemordagi xavotir va stressni kamaytiradi.

Psixodiagnostika va tashxis: Tibbiy terminlar (masalan, *depressiya, astenik sindrom, psixosomatik, ippoxondriya*) bemorning ruhiy holatini aniq tavsiflashga yordam beradi. Psixologik tekshiruv usullari aynan mana shu terminlar asosida umumlashtiriladi.

Kasallik xaritasi va hissiyotlar: Tibbiy psixologiya bemorning ichki a'zolar kasalliklari bilan bog'liq ruhiy o‘zgarishlarini o'rganadi. Bemorning o‘z xastaligini qanday atashi (tibbiy terminologiya orqali) uning psixologik holatini (qo‘rquv, inkor etish, qabul qilish) ko‘rsatadi.

Psixofarmakoterapiya: Dori vositalarining nomlanishi va ularning ta’siri (terminologiya) bemorga psixologik ta’sir ko'rsatish (psixoterapiya) bilan parallel olib boriladi. Shifokor tili nafaqat kasallikni, balki davolashning ruhiy jihatlarini ham ifodalaydi.

Bemorlarda psixologik status to‘la tekshirilgandan keyin, olingan ma’lumotlar psixologik testlar, laboratoriya natijalari va boshqa mutaxassislar xulosalari bilan solishtiriladi. Keyin bemorga tibbiypsixologik tashxis qo‘yiladi. Masalan, bemorda psixosomatik buzilishlar aniqlansa, diagnozni quyidagicha ifodalash mumkin: “Psixosomatik sindrom, psixogen kardialgiya”. Demak, awal kasallik yoki sindromni ko‘rsatib, keyin uning yaqqol ifodalangan belgisi yoziladi. Diagnoz tasdiqlangandan keyin davolash choralari belgilanadi, prognoz aniqlanadi va individual psixoreabilitatsiya rejalari ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, tibbiyot psixologiyasi barcha tabiiy va aniq fanlar ta’siri ostida rivojlandi va alohida fan sifatida butun dunyoda tan olindi. Albatta, ushbu kichik bir bobda tibbiyot psixologiyasining tarixini batafsil yoritish mushkul. Uning tarixi haqidagi qo'shimcha ma’lumotlarni internet sahifalaridan va maxsus kitoblardan olish mumkin.

Xulosa. Tibbiy terminologiya - tibbiyotning “tili” bo‘lsa, tibbiy psixologiya - bu tilning bemor ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish san’atidir. Ularning bog‘liqligi bemorga to‘g‘ri yondashish, uni ruhiy qo‘llab-quvvatlash va davolash jarayonini samarali tashkil etishda shifokor uchun muhim qurol hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. DEVIANT XULQ ATVOR IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna, Kurbanbaeva Mehriban Jenisbay qizi (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, YANGI O‘ZBEKISTON TALABALARI AXBOROTNOMASI IF: 8.9 3-JILD,10-SON (YO’TA).2025.
2. Eshmurodova, S. O. (2025). Interrelationship of Latin and Foreign Languages in Medical Institutions and Teaching Skills. American Journal of Modern World Sciences, 2(10), 121-129.
3. Eshmurodova, S. O. (2025). Teaching Methodologies of Latin and Foreign Languages. Bulletin of News in New Science Society, 2(9), 99-104.
4. Oybekovna, E. S. (2025). Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati.
5. Eshmurodova, S. O. Q. (2024). Lotin tilini o‘qitishdagi muhim vazifalar va usullari. Academic Research in Educational Sciences, (1), 438-441.
6. Eshmurodova, S. (2025). Frazeologik birliklarda emotsional holatning ilmiy-nazariy tavsifi. Acta NUUz, 1(1.3), 347-349.
7. Sh, S. (2017). Rustamova, M. A., Saydullayeva, M. A., Abdullayeva, R. M., Israilova, M. N., Yuldasheva, D. Yu.
8. Rustamova, S. S. (2025). The importance of communicative competence in enhancing language learners’ professional skills in pedagogy. Yangi O‘zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari.
9. Rustamova, S. S. (2025). Psychological characteristics of the motivation of the professional development of a teacher in pedagogical activity. Bulletin of News in New Science Society, 2(9), 105-119.
10. Shaxobiddinovna, R. S. (2025). Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari.
11. Aliyev, S., & Norboboyeva, S. (2026, March). MYOPIA: PREVALENCE, RISK FACTORS AND PREVENTION STRATEGIES IN MODERN STUDENTS. In CONFERENCE ON GLOBAL RESEARCH PERSPECTIVES (Vol. 4, No. 1, pp. 134-138).
12. Askaraliyevna, K. M. (2025). Total physical response method: highlighting aural comprehension in language learning. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 366-369.
13. Avezova, A. K. (2025, May). SIMPLE MEDICAL CONVERSATIONS IN UZBEK: A GUIDE FOR BEGINNERS IN HEALTHCARE. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 20-may, pp. 45-47).

14. Avezova, A. K. P. Q. (2024). O ‘ZBEK TILI TALAFFUZ QOIDALARINI XORIJLIK TALABALARGA O ‘RGATISHDA Q, G ‘, X, U VA SH TOVUSHLARINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (1), 407-410.

15. Bobomurodova, G. I. (2024). The role of gender in compound words describing human appearance. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika – Foreign Linguistics and Linguodidactics, (2)(4).

16. Isomiddinova, D. (2026). Designing an ESP course for first-year medical students: A needs-based case study and content-oriented approach. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 4(1).

17. Isomiddinova Diyora. (2026). LEARNING WITH CORPORA IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: PEDAGOGICAL IMPLICATIONS. Ta’limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari, 53(1), 163-165.

18. Israilov J.D. AUTHENTIC MEDICAL TEXTS AS A FOUNDATION FOR DEVELOPING PROFESSIONAL ENGLISH COMPETENCE IN MEDICAL EDUCATION . (2025). Global Science Review, 11(1), 279-289.

19. Israilov, J. D. (2025,). The Role of Professionally Oriented Medical Texts in Forming Lexical and Discursive Competence in Medical English. In VII International Mediterranean Scientific Research Congress.–Hatay Mustafa Kemal University, Hatay, Türkiye.–13–15 June (pp. 754-758).

20. JUMANAZAROVNA, B. (2025). USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO MEDICAL STUDENTS. INTERNATIONAL JOURNAL, 5(3), 18-20.

21. Xushbaroy, B. (2025). Effective strategies for teaching English as a foreign language (EFL). EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(5), 863-867.

22. Kadirova L.U., ПЕРЕВОДЫ ЗАИМСТВОВАННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВMODERN SCIENTIFIC RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. , 2024-yil.

23. Kadirova L.U., Prince Kumar Гомеопатия в Индии-популярность, развитие и вызовы // International journal of advanced research in education, technology and management. -pp61-65, 2025-yil. vol4, issue 2,2025.

24. Kakhorova, M., & Maqsudjonov, S. (2025). THE COMMON HEALTHCARE APPROACHES IN THE ERA OF GRECO-ROMAN ANTIQUITY. Journal of Applied Science and Social Science, 1(1), 3-6.

25. Madinabonu, J. (2024). SOCIOLINGUISTIC FACTORS THAT IMPACT THAT STUDENTS’LANGUAGE LEARNING. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(11), 94-96.

26. Madinabonu, J. (2025). ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH MOBILE TECHNOLOGIES: A STUDY OF MALL. EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(5), 850-858.

27. Muhammedova, O. A., & Hamrayeva, D. (2026). Global tibbiy kommunikatsiyada lotin terminologiyasining standartlashtiruvchi roli. Медицинский журнал молодых ученых, 413–418.

28. Norboboeva, S. A. (2025, May). USING TASK-BASED LEARNING TO TEACH MEDICAL ENGLISH IN INTERNATIONAL CLASSROOMS. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 20-may, pp. 208-209).

29. Rakhmatova, N. (2025). INNOVATSION METODIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TIBBIYOT YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA CHET TILINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Filologiya va pedagogika, 14(18).

30. Абдуллаев, М. К., and А. Х. Жураев. "Interfaol o ‘qitish metodlari–ijodiy shaxsni tarbiyalash folati." Научно-методические журнал министерства народного образования “Преподавания языка и литературы 7 (2016): 22-23.

31. Rakhmatova, N. (2025). THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) TOOLS ON FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY: A CRITICAL ANALYSIS OF OPPORTUNITIES AND CHALLENGES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(12), 79–82.

32. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.

33. Абдуллаева, Р. М. (2016). Своеобразие системы образования великобритании. Ученый XXI века, (3-4).

34. Бобомуродова, Г. И. (2025, November). Геймификация как средство повышения учебной мотивации студентов-медиков при изучении английского языка в контексте ESP. Latin American Journal of Education, 5(6).

35. Мухаммедова, О. А., & Солиев, С. Ш. (2025). Составные части и категории медицинских терминов. Медицинский журнал молодых ученых, 340–342.

36. Алибекова Л. Р. " ЖИВОЙ" РУССКИЙ: КАК СДЕЛАТЬ ЗАНЯТИЯ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ИНТЕРЕСНЫМИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ //E-Conference platform. – 2025. – Т. 1. – №. 20-may. – С. 24-27.

37. Алибекова Л. Р. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КРЫЛАТЫХ ВЫРАЖЕНИЙ В МЕДИЦИНЕ, И ИХ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩЕГО ВРАЧА //E-Conference platform. – 2025. – Т. 1. – №. 20-may. – С. 28-30.